

Jamiyat va boshqaruv

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI



Toshkent – 2026



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)

TARKIBIY O'ZGARISHLARGA YANGI NAZAR: YANGI O'ZBEKISTONDAGI IQTISODIY TRANSFORMATSIYANI BAHOLASH

Jamoliddin ISMAILOV,

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining
mustaqil izlanuvchisi



Annotatsiya: mazkur maqolada Yangi O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy transformatsiya jarayonlari tahlil qilingan. Iqtisodiy o'sish dinamikasi, tarmoqlar tarkibidagi o'zgarishlar hamda iqtisodiy o'sishning yangi drayverlari baholangan. Shuningdek, texnologik rivojlanish va ilmiy-tadqiqot ishlari intensivligi asosida tarkibiy o'zgarishlarning miqdoriy bahosi keltirilgan. Tahlil natijalari so'nggi yillarda ijobiy siljishlar mavjudligini, biroq yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish zarurati saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Maqolada iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *tarkibiy transformatsiya, iqtisodiy o'sish, sanoatlashtirish, texnologik rivojlanish, ilmiy-tadqiqot faoliyati, Yangi O'zbekiston.*

Новое понимание структурной трансформации: оценка экономических преобразований в Новом Узбекистане

Жамолiddин Исмаилов,
самостоятельный соискатель Академии государственной политики и управления

Аннотация: в статье рассматриваются процессы структурной трансформации экономики Нового Узбекистана. Проанализированы изменения в отраслевой структуре ВВП и выявлены новые драйверы экономического роста. Особое внимание уделено количественной оценке структурных изменений на основе показателей технологического развития и интенсивности НИОКР. Результаты анализа свидетельствуют о положительной динамике в последние годы при сохранении доминирования отраслей с низким и средне-низким уровнем технологий. В работе предложены рекомендации по ускорению технологической модернизации и углублению структурных реформ.

Ключевые слова: *структурная трансформация, экономический рост, индустриализация, технологическое развитие, научно-исследовательская деятельность, Новый Узбекистан.*

**A New Insight into Structural Transformation:
Assessing Economic Shifts in New Uzbekistan**

Jamoliddin Ismailov,

independant researcher of the
Academy of Public Policy and Administration

Abstract. this article analyzes the processes of structural transformation in the economy of New Uzbekistan. It examines changes in the sectoral structure of GDP and identifies new drivers of economic growth. Particular attention is paid to assessing structural changes through technological development and R&D intensity indicators. The results show a positive shift after 2016, although the economy remains dominated by low and medium-low technology sectors. The article concludes with policy recommendations aimed at accelerating technological upgrading and sustainable structural transformation.

Keywords: *structural transformation, economic growth, industrialization, technological development, R&D intensity, New Uzbekistan.*

Mamlakatimizda hayotning barcha jabhalarini qamrab oluvchi keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq 2030-yilga borib, respublika barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi, "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirishni maqsad qilgan [1]. Ushbu maqsadga erishish uchun iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari va iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar zarur.

"Tarkibiy o'zgarishlar" tushunchasi XX asrning o'rtalarida rivojlanayotgan iqtisodiy nazariyotchilar orasida paydo bo'ldi. Bu tushuncha resurslarning "an'anaviy" – past unumdorlikka ega bo'lgan (masalan, qishloq xo'jaligi) sohalardan "zamonaviy" – yuqori

unumdorlikka ega bo'lgan (masalan, sanoat) sohalarga o'tishini, shuningdek, bu o'zgarishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tushunishga qaratilgan iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan [2].

***Tarkibiy transformatsiya** (yoki tarkibiy o'zgarishlar) – bu mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishini ishlab chiqish, qo'shimcha qiymat va texnologik jihatdan samarasi yuqoriroq bo'lgan faoliyat, tarmoq va sohalarga yo'naltirish jarayonidir.*


Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi va amaliyoti tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishdan tashqari, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati yuqoriligini ko'rsatmoqda [3], [4]. Tarkibiy o'zgarishlar: raqobatdosh, tashqi zarbalarga bardosh bera oladigan, barqaror va inklyuziv o'sishni ta'minlovchi, qashshoqlikni kamaytiradigan va har bir inson uchun farovonlikni ta'minlaydigan iqtisodiyotga o'tish uchun zarur deb tushuniladi [5], [6], [7]. Shuning uchun davlat iqtisodiy siyosatida iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi masalasi doimo muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston iqtisodiy o'sish bo'yicha samarali o'sayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. 2024-yil natijalariga ko'ra, mamlakat yalpi ichki mahsuloti (keyingi o'rinlarda – YAIM) 1454573,9 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu – aholi jon boshiga 39131,4 ming so'mga teng. Respublikamiz mustaqilligining dastlabki davridagi iqtisodiy pasayishdan so'ng, 1996-yildan beri O'zbekiston yalpi mahsuloti har yili

o'sib kelmoqda.

1991-yilda mamlakatimiz xarid qobiliyatini inobatga olingan aholi jon boshiga

YAIMi Xitoydan tashqari boshqa qo'shni davlatlar bilan solishtirilganda past bo'lgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. O'zbekiston va xorijiy davlatlar o'rtasidagi aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotnisbati, marotaba*

*Nisbatlar xarid qobiliyati paritetidan foydalangan holda tegishli mamlakatlarning O'zbekistonga nisbatan aholi jon boshiga YAIM ko'rsatkichi asosida hisoblangan YAIM (doimiy narxlar - 2021-yildagi xalqaro dollar o'lchovida). Ya'ni bu ko'rsatkich 1 deb qabul qilingan O'zbekiston darajasidan necha marta yuqori yoki pastligi aks etadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda rasmiy va ishonchli YAIM statistikasi 2015-2016-yillargacha tizimli e'lon qilinmagan. O'sha davrdagi xalqaro ma'lumotlar bazalaridagi ko'r-satkichlar taxminiy baholashga asoslangan. XV F 2017-yilgi IV Modda maslahatlashuvida O'zbekiston statistikasining ishonchliligini oshirish zarurati alohida qayd etilgan. Shu sababli, 2016-yilgacha bo'lgan tahlil natijalari ham taxminiy hisoblanadi.

Manba: muallif tomonidan Jahon bankining World Development Indicators (WDI) ma'lumotlar bazasidagi [8] ko'rsatkichlar asosida hisoblangan.

O'zbekiston yuqori iqtisodiy o'sish sur'ati natijasida, Qirg'iziston va Tojikistondan ilgari ketgan bo'lsa, Rossiya va Qozog'iston bilan solishtirilganda farq sezilarli kamaydi. Masalan, 2016-2023-yillarda oxirgi ikki davlat va O'zbekiston o'rtasidagi tafovut 11 % va 13% ga kamaydi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz ushbu ikki qo'shni mamlakatga yetib olishi uchun qo'shimcha manbalar va jadal o'sish yo'llarini izlashi kerak. Bu esa, mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy o'zgarishlarini jaddallashtirish, samarasi yanada yuqori bo'lgan faoliyat, tarmoq va sohalarga yo'naltirishni talab qiladi.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining transformatsiya yo'li: yangi industrial siyosati va yangi drayverlar.

1991-yilda mustaqillikka erishgan O'zbekiston iqtisodiyoti markazlashgan rejali tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha murakkab transformatsiya jarayonini boshidan kechirdi.


1990-yillarda iqtisodiy siyosat, asosan, inqiroz oqibatlarini yumshatish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish, davlat nazoratidagi islohotlar orqali barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan edi. Bu davrda iqtisodiyot tarkibida sanoat ulushi pasayib, savdo va xizmatlar sohasining ulushi ortib bordi.

2000-yillarda iqtisodiy siyosat davlat tomonidan yo'naltirilgan sanoatlashtirish va

import o'rnini bosish strategiyasi asosida amalga oshirildi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat, shuningdek, transport va aloqa sohalarining ulushi asta-sekin o'sdi. Shu bilan birga, ma'lum yutuqlarga qaramay, mamlakat iqtisodiyoti nisbatan yopiq holatda saqlanib qoldi.

2010–2016-yillarda iqtisodiyot tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. Tarkibiy islohotlar nuqtayi nazaridan, mazkur davrni past sur'atdagi o'zgarishlar bosqichi, deb ta'riflash mumkin. Masalan, ushbu yillar mobaynida YAIMda sanoat ulushi 2 foizga oshgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi ulushi shu darajada qisqardi (2-rasmga qarang).

Hozirgi islohotlar bosqichi iqtisodiyotning faollashishiga va uning tarkibiy transformatsiyasining sezilarli darajada jadallashishiga olib keldi. Bunday vaziyatni iqtisodiyotdagi renessans, ya'ni Uyg'onish davri, deb atash mubolag'a bo'lmaydi. Qayta ishlash sanoati, ya'ni yuqori qo'shimcha qiymat va texnologiyalar bilan farqlanadigan tarmoqlar ulushi 2024-yilga kelib, 2010-yilga nisbatan ikki barobarga oshdi (2-rasmga qarang).




2-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha YAIM tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari [9] asosida muallif tomonidan hisoblandi

7 foizida 1,8 foiz punktini (barcha o'sishning chorak qismidan ko'prog'ini) ta'minlagan **qishloq xo'jaligi** asosiy o'sish omili bo'lgan bo'lsa, 2017-2024-yillarda **ishlab chiqarish** sanoati asosiy rol o'ynadi.

2017-2023-yillarda uning hissasi YAIM umumiy o'sishining 5,5 foizida 1,2 foiz punktini, 2024-yilda esa YAIM o'sishining 6,6 foizida 1,5 foiz punktini tashkil etdi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlarining* YAIM o'sishiga qo'shgan hissasi, foizda

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichiga (IFUT-2) muvofiq

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari [9] asosida muallif tomonidan hisoblandi

Qurilish va savdo ham iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari bo'lib qolmoqda. Turizm sohasini rivojlantirish va iqtisodiyotni raqamlashtirish xizmat ko'rsatish sohasi, xususan, yashash va ovqatlanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ulushini oshirishga xizmat qilmoqda. 2024-yilda ularning yalpi ichki mahsulot o'sishidagi umumiy hissasi 1,2 foizdan oshdi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida sifat jihatidan muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. Agar

2016-yilgacha qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq bo'lgan bo'lsa, so'nggi yillarda asosiy e'tibor qayta ishlash sanoati va xizmat ko'rsatish sohasiga qaratilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari ulushining tahlili tarkibiy o'zgarishlar jarayonlari haqida ma'lum tasavvur beradi. Ammo mazkur jarayonga miqdoriy baho berish mumkinmi? Mazkur maqolada shunday baholash o'lchovlaridan birini keltiraman. Bunda tarkibiy o'zgarishlar texnologik rivojlanish darajasi va ilmiy-tadqiqot ishlaridagi faollik orqali o'lchanadi. Buning

uchun Jahon bankining World Development Indicators ma'lumotlar bazasidagi High-technology exports indikatorining metodik va konseptual asoslaridan foydalanish mumkin.

“Yuqori texnologiyali mahsulotlar” tushunchasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) tasnifiga asoslangan bo'lib, u ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI)ning intensivligi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlarini qamrab oladi. Bu tasnif, dastlab, Tomas Hatzichronoglou tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u 2-ilova, 4-jadvalda bayon etilgan [10].

Keyinchalik ushbu tasnif IHTT tomonidan yangilangan tahrirda qayta ishlab chiqildi [11]. Ushbu maqolada aynan shu tahrir asosida O'zbekiston iqtisodiyotining texnologik tarkibi baholandi.

Mazkur tasnifga ko'ra, tarmoqlar (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichiga [IFUT-2] muvofiq) ITTKI intensivligi darajasiga qarab besh toifaga ajratiladi:

1. Past intensivlikka ega tarmoqlar (Low R&D intensity industries).
2. O'rtacha-past intensivlikka ega tarmoqlar (Medium-low).
3. O'rtacha intensivlikka ega tarmoqlar (Medium).
4. O'rtacha-yuqori intensivlikka ega tarmoqlar (Medium-high).
5. Yuqori intensivlikka ega tarmoqlar (High).

Tasnif ishlab chiqarish sanoati (Manufacturing) va noishlab chiqarish sohalari (Non-manufacturing) uchun alohida ishlab chiqilgan. Ushbu ikkala soha inobatga olsa, unda umumiy iqtisodnikini chiqarsa bo'ladi.

Iqtisodiyotda qaysi darajadagi texnologik intensivlik ustunlik qilsa, iqtisodiyot ana shu darajaga mansub deb baholanishi mumkin. Biroq, agar iqtisodiyotda turli darajadagi ITTKI intensivligi tarmoqlari mavjud bo'lsa, ITTKI intensivligining o'rtacha darajasini ifodalovchi integral ko'rsatkichni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$TI = \sum D_i * r_i$$

bu yerda:

TI – ITTKI intensivligining integral darajasi;

D_i – tovar ishlab chiqarishning umumiy hajmida


i-tarmoqning qo'shilgan qiymati (yoki yalpimahsuloti) ulushi;

r_i – ITTKI ning intensivlik darajasi (yuqorida ko'rsatilgan 5 ta daraja).

4-rasmda texnologik rivojlanish va ITTKI intensivligi darajasi nuqtayi nazaridan tarkibiy o'zgarishlarning natijalari aks ettirilgan. Qiyosiy tahlil sifatida Qozog'iston ma'lumotlari ham ko'rsatilgan.

Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha esa, O'zbekiston 2 va 3-toifalar o'rtasidagi darajani namoyon qilmoqda. Shuningdek, 2017-yildan boshlab, O'zbekiston ushbu ko'rsatkich bo'yicha Qozog'istondan biroz ilgarilab ketgani kuzatiladi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyoti 1 va 2-toifalar, ya'ni past va o'rtacha-past texnologik darajalar oralig'ida joylashgan. Biroq, 2016-yildan keyin texnologik rivojlanishda ijobiy tendensiya kuzatildi: integral ko'rsatkich 2016-yildagi 1,34 dan 2021-yilda 1,49 gacha o'sdi, ya'ni 11 foizlik o'sishga erishildi.



4-rasm. Texnologik rivojlanish va ITTKI intensivligi darajasi nuqtayi nazaridan tarkibiy o'zgarishlarni baholash

Manba: Milliy statistika qo'mitasi [9] va xalqaro tashkilotlar ma'lumotlar bazasi [8] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha esa, O'zbekiston 2 va 3-toifalar o'rtasidagi darajani namoyon qilmoqda. Shuningdek, 2017-yildan boshlab, O'zbekiston ushbu ko'rsatkich bo'yicha Qozog'istondan biroz ilgarilab ketgani kuzatiladi.

Maqolada Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda kuzatilayotgan tarkibiy transformatsiya jarayonlari kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2017-yildan keyin amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida, iqtisodiyot tarkibida sifat jihatidan muhim o'zgarishlar yuz berib, qayta ishlash sanoati va xizmatlar sohasining roli sezilarli darajada oshdi. Bu esa, iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini shakllantirishga va o'sish manbalarini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda.

Maqolada Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda kuzatilayotgan tarkibiy transformatsiya jarayonlari kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni

ko'rsatmoqdaki, 2017-yildan keyin amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiyot tarkibida sifat jihatidan muhim o'zgarishlar yuz berib, qayta ishlash sanoati va xizmatlar sohasining roli sezilarli darajada oshdi. Bu esa iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini shakllantirishga va o'sish manbalarini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, miqdoriy baholash natijalari O'zbekiston iqtisodiyoti hanuz past va o'rtacha-past texnologik intensivlik darajasida ekanligini ko'rsatadi. Garchi 2016-yildan keyin texnologik rivojlanish va ilmiy-tadqiqot faolligida ijobiy dinamika kuzatilgan bo'lsa, yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan va yuqori texnologiyali tarmoqlarning iqtisodiyotdagi ulushi hali yetarli darajaga yetmagan.

Ushbu holatdan kelib chiqib, iqtisodiy siyosatda tarkibiy transformatsiyani yanada jadallashtirish maqsadida, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, sanoat siyosati doirasida o'rtacha-yuqori va yuqori texnologik intensivlikka ega tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan aniq va maqsadli dasturlarni kuchaytirish zarur;

ikkinchidan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga investitsiyalarni oshirish, xususiyl sektorning innovatsion faolligini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi;

uchinchidan, inson kapitali sifatini oshirish, xususan, muhandislik, texnologiya va raqamli

ko'nikmalarni rivojlantirish tarkibiy o'zgarishlarning barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lishi lozim.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida boshlangan tarkibiy transformatsiya jarayonlari ijobiy natijalarni bermoqda. Uzoq muddatli barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishish uchun ushbu jarayonlarni texnologik modernizatsiya, innovatsiyalar va institutsional islohotlar bilan uyg'un holda davom ettirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni.
2. Lewis, W. A., 1954. Economic Development with Unlimited Supplies of Labor. Manchester School of Economic and Social Studies, Issue 22, pp. 139-191. Kuznets, S., 1955. Economic Growth and Income Inequality. The American Economic Review, March, 45(1), pp. 1-28.
3. Ivan D. Trofimov. The Effects of Structural Change on Economic Growth: A Panel Data Analysis. Panoeconomicus 70(3):1-43, May 2023
4. Suale Karimua and Attahir B. Abubakar. Income inequality, structural change, and inclusive economic growth. Oxford Development Studies 2025, Vol. 53, no. 3, 305–325
5. UNCTAD, 2016. Virtual institute teaching material on Structural transformation and Industrial policy, New York and Geneva: UNCTAD Virtual Institute.
6. UN-Habitat, U. N. H. S. P., 2016. Structural transformation in developing countries: Cross regional analysis, Nairobi: UNON, publishing services section (Printer).
7. UN-OHRLLS, 2019. Review of Progress made in structural economic transformation in Euro-Asian landlocked developing countries (LLDCs)
8. World Development Indicators (WDI) <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ochiq ma'lumotlar bazasi <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>
10. Thomas Hatzichronoglou. Revision of the High Technology Sector and Product Classification. OECD Science, Technology and Industry Working Papers 1997/02
11. Fernando Galindo Rueda, Fabien Verger. OECD Taxonomy of Economic Activities Based on R&D Intensity. OECD Science, Technology and Industry Working Papers 2016/04